



**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI
VA KAYSERI UNIVERSITETI (TURKIYA) O'RTASIDAGI
HAMKORLIK SHARTNOMASI**



Universitetlar orasidagi o'zaro hamkorlik o'rnatish maqsadida **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (O'zDSMI)** hamda Turkiya Respublikasining **Kayseri universiteti** quyidagi mavzularda hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

O'zDSMI va **Kayseri universitetlararo** hamkorlik dasturida professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvining o'zaro manfaatli bo'lishi nazarda tutilgan.

Alohida maqsadli hamkorliklar, o'zaro kelishuv asosida bundan boshqa alohida shartnoma shaklida imzolanadi.

Oliy o'quv yurti rahbarlari quyida ko'rsatilgan hamkorlik sohalarida kelishuvga erishdilar:

1. Fakultet professor-o'qituvchilarining dars berish yoki qisqa muddatli ziyorat maqsadidagi almashinuvi.
2. Ilmiy tadqiqot maqsadidagi talabalar almashinuvi.
3. Fundamental tadqiqot olib boorish maqsadida magistratura va doktorantura bosqichi talabalarining almashinuvi.
4. Konferensiya va simpoziumlarga qatnashish maqsadida professor-o'qituvchilarni taklif qilish.
5. Ilmiy maqola va tadqiqotlarni nashr qilishda hamkorlik qilish.
6. Video konferensiyalarni tashkil qilish.
7. Oliy o'quv yurtlari orasidagi hamkorlik shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun ichki va tashqi resurslarni topishga qaratilgan mushtarak tadqiqotlarni rejalashtirish.
8. Qo'shma fakultetlar tashkil qilishni rejalashtirish.

Bu shartnoma matnida qayd qilingan "almashinuv" alohida foizni ifoda qilmaydi va shartnomani qabul qiluvchi tomonlarga hech qanday moliyaviy majburiyat yuklamaydi.

Yar ikki oliy o'quv yurti ushbu shartnomani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy faoliyatlarning yoki bundan keyin imzolanadigan shartnomalarning universitetlar amal qiladigan qoidalarga asoslanishi haqida kelishib oldilar. Har ikki tomon ushbu shartnoma matnining o'zaro kelishuv asosini tashkil qilishi xususida hamfikir va bu matn har ikki oliy o'quv yurti uchun moliyaviy majburiyat yuklamaydi.

Ushbu shartnoma oxirgi imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti nomidan**

Prof. Dr. Nodirbek SAYFULLAYEV

Sana 28 09.2024

**Kayseri universiteti
nomidan**

Prof. Dr. Kurtuluş KARAMUSTAFA

Sana 28 09.2024